## Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

*2026-yil yanvar-mart oylari uchun*

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

II. Sirdaryo viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

### I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **2 045,8** mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – **1 829,3** mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – **180,6** mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi **35,9** mlrd soʻmni tashkil qildi.

**Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati**



## II. Sirdaryo viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (**330,6** mlrd soʻm), Sayxunobod (**290,9** mlrd soʻm), Sardoba (**251,3** mlrd soʻm), Sirdaryo (**244,6** mlrd soʻm), Guliston (**228,7** mlrd soʻm) va Mirzaobod (**224,0** mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**10,8** mlrd soʻm), Yangiyer (**14,0** mlrd soʻm) va Guliston shaharlarini (**93,3** mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

| | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati % da |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **2 045,8** | **107,8** |
| Guliston sh. | 93,3 | 104,0 |
| Shirin sh. | 10,8 | 103,5 |
| Yangiyer sh. | 14,0 | 102,0 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqoltin | 180,0 | 106,7 |
| Boyovut | 330,6 | 107,6 |
| Sayxunobod | 290,9 | 106,9 |
| Guliston | 228,7 | 107,2 |
| Sardoba | 251,3 | 106,9 |
| Mirzaobod | 224,0 | 111,3 |
| Sirdaryo | 244,6 | 108,0 |
| Xovos | 177,6 | 109,8 |

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (**111,3** %), Xovos (**109,8** %) va Sirdaryo tumanlarida (**108,0** %) qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston (**104,0** %), Shirin (**103,5** %) va Yangier (**102,0** %) shaharlarida o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi aholi jon boshiga**
*(ming. so‘m)*

| | 2025 yil | 2026 yil | O‘sish sur’ati, % |
|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **1 812,8** | **2 158,1** | **106,1** |
| Guliston sh | 566,3 | 890,8 | 101,5 |
| Shipin sh | 487,5 | 556,3 | 103,4 |
| Yangiyep sh | 222,7 | 279,3 | 99,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| Boyovut | 1 953,0 | 2 290,0 | 105,6 |
| Guliston | 2 426,9 | 2 774,1 | 105,6 |
| Mirzaobod | 2 115,9 | 2 661,9 | 109,1 |
| Oqoltin | 2 768,5 | 3 129,1 | 105,0 |
| Sardoba | 2 934,9 | 3 469,3 | 105,4 |
| Sayxunobod | 2 875,4 | 3 402,9 | 105,5 |
| Sirdaryo | 1 455,2 | 1 730,9 | 106,5 |
| Xovos | 1 458,2 | 1 678,6 | 108,2 |

2026-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot **2 158,1** ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan **6,1** % ga o‘sdi.

## III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi **1 790,8** mlrd soʻmni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **107,7** % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **165,6** mlrd soʻmni (**138,4** %), chorvachilik mahsulotlari **1 625,2** mlrd soʻmni (**104,9** %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**295,3** mlrd soʻm), Sayxunobod (**259,2** mlrd soʻm), Sardoba (**233,9** mlrd soʻm) va Sirdaryo (**208,3** mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**9,6** mlrd soʻm), Yangiyer (**12,5** mlrd soʻm) va Guliston shaharlarini (**85,8** mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Yuqori oʻsish sur'atlari Mirzaobod (**115,2** %), Xovos (**110,0** %), Sirdaryo (**108,0** %) va Sayxunobod (**107,3** %) tumanlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Guliston (**111,0** %), Shirin (**103,4** %) va Yangiyer (**103,8** %) shaharlarida esa aksincha oʻsish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlillar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining **76,8** % dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, **9,2** % fermer xoʻjaliklariga, **14,0** % qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.

## Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**25,7** mlrd so‘m), Xovos (**24,2** mlrd so‘m), Guliston (**24,1** mlrd so‘m), Sayxunobod (**24,0** mlrd so‘m) va Sirdaryo (**20,8** mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**1,8** mlrd so‘m), Yangiyer (**0,1** mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (**0,5** mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (**2,5** m.), Xovos (**137,5** %), Oqoltin (**136,2** %) va Boyovut (**134,8** %) tumanlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Shirin shahri (**119,7** %), Sirdaryo (**121,2** %) va Guliston tumanlarida (**125,3** %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan **2 416,2** tonna sabzavotlar (2025-yilning yanvar-martiga nisbatan **38,4** % ga ko‘p) yetishtirildi.

### Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari
2026-yil yanvar-mart

| | Miqdori | O‘sish sur’ati % da |
|---|---|---|
| **Sabzavotlar, tonna** | **2 416,2** | **138,4** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 324,1 | 123,2 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 1 151,1 | 103,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 941,0 | 251,6 |

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan sabzavotlar yetishtirishning **13,4** % fermer xo‘jaliklari hissasiga, **47,6** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **39,0** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

## 2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

| | Barcha xo'jaliklarda yetishtirilgan sabzavotlar (tonna) | | |
|---|---|---|---|
| | 2025 y. | 2026 y. | O'sish sur'ati % da |
| **Sirdaryo viloyati** | **1 746,0** | **2 416,2** | **138,4** |
| Guliston sh. | 1,0 | 1,2 | 115,0 |
| Shirin sh. | 89,4 | 106,8 | 119,5 |
| Yangiyer sh. | 2,4 | 2,4 | 100,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqoltin | 41,3 | 44,3 | 107,3 |
| Boyovut | 211,0 | 251,1 | 119,0 |
| Sayxunobod | 198,7 | 222,0 | 111,7 |
| Guliston | 431,3 | 443,9 | 102,9 |
| Sardoba | 124,0 | 235,5 | 189,9 |
| Mirzaobod | 71,2 | 499,1 | 700,9 |
| Sirdaryo | 514,4 | 534,2 | 103,8 |
| Xovos | 61,3 | 75,7 | 123,5 |

Shunga mos ravishda sabzavotlarning **13,4** % fermer xo‘jaliklari hissasiga, **47,6** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **39,0** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

## Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**269,7** mlrd so‘m), Sayxunobod (**235,2** mlrd so‘m), Sardoba (**217,6** mlrd so‘m), Sirdaryo (**187,6** mlrd so‘m) va Guliston (**171,9** mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**7,8** mlrd so‘m), Yangiyer (**12,4** mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (**85,4** mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Guliston shahri (**110,8** %), Mirzaobod (**109,0** %) va Sirdaryo (**106,6** %) tumanlarida qayd etildi. Shirin shahri (**99,8** %), Sardoba (**102,9** %) va Boyovut (**103,6** %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda **16 990,1** tonna go‘sht, **65 078,0** tonna sut, **46 889,9** ming dona tuxum, **119,6** tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va **1 318,8** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go‘sht hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,4** % ni, sog‘ib olingan sut – **105,7** % ni, olingan tuxum – **109,8** % ni, qirqib olingan jun – **100,5** % ni hamda ovlangan baliqlar – **111,0** % ni tashkil qildi.

### Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar
2026-yil yanvar-mart

| | Miqdori | O‘sish sur’ati % da |
|---|---|---|
| **Go‘sht** ***(tirik vaznda)*****, tonna** | **16 990,1** | **104,4** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 1 006,7 | 137,3 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 14 156,8 | 100,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 826,6 | 124,4 |
| **Sut, tonna** | **65 078,0** | **105,7** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 7 924,4 | 129,8 |

| | Miqdori | O‘sish sur’ati % da |
|---|---|---|
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 51 497,6 | 101,0 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 5 656,0 | 126,2 |
| **Tuxum, ming dona** | **46 889,9** | **109,8** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 4 879,8 | 152,4 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 28 731,2 | 101,1 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 13 278,9 | 119,7 |
| **Jun, tonna** | **119,6** | **100,5** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 24,6 | 117,0 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 86,1 | 94,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 8,9 | 127,7 |
| **Baliq, tonna** | **1 318,8** | **111,0** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 332,0 | 133,8 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 57,1 | 106,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 929,7 | 104,8 |

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go‘shtning umumiy hajmidan **5,9** % fermer xo‘jaliklari hissasiga, **83,3** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **10,8** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

Shunga mos ravishda sog‘ib olingan sutning **12,2** % fermer xo‘jaliklari, **79,1** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **8,7** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **10,4** % fermer xo‘jaliklariga, **61,3** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **28,3** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **20,5** % fermer xo‘jaliklari, **72,0** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **7,5** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **25,2** % fermer xo‘jaliklariga, **4,3** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **70,5** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

### 2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

| | **Go‘sht** *(tirik vaznda), tonna* | **Sut,** *tonna* | **Tuxum,** *ming dona* | **Baliq,** *tonna* |
|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **16 990,1** | **65 078,0** | **46 889,9** | **1 318,8** |
| Guliston sh. | 1 054,0 | 1 801,2 | 3 755,0 | 18,6 |
| Shirin sh. | 100,6 | 120,4 | 2,1 | - |
| Yangiyer sh. | 165,9 | 125,3 | 180,9 | 0,3 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqoltin | 1 497,1 | 6 514,6 | 2 604,6 | 66,7 |
| Boyovut | 2 838,7 | 11 084,6 | 3 418,2 | 199,1 |
| Sayxunobod | 2 494,7 | 9 299,6 | 4 494,7 | 103,0 |
| Guliston | 1 699,7 | 7 954,5 | 4 549,3 | 95,9 |

*davomi*

| | **Go'sht** *(tirik vaznda), tonna* | **Sut,** *tonna* | **Tuxum,** *ming dona* | **Baliq,** *tonna* |
|---|---|---|---|---|
| Sardoba | 2 417,6 | 5 999,5 | 13 007,9 | 81,2 |
| Mirzaobod | 1 605,4 | 7 173,4 | 6 667,5 | 656,9 |
| Sirdaryo | 1 909,2 | 8 381,6 | 3 350,7 | 39,3 |
| Xovos | 1 207,2 | 6 623,3 | 4 859,0 | 57,8 |

## IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **499 242** boshga yetdi, (2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan **2,4** % ga ko'p), sigirlar **172 834** boshga (**4,2** % ga ko'p), qo'y va echkilar **382 746** boshga (**6,6** % ga ko'p), parrandalar **4 524 753** boshga (**7,9** % ga ko'p) yetdi.

### 2026-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | **Bosh** | **O'sish sur'ati % da** |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramollar** | **499 242** | **102,4** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo'jaliklari | 44 873 | 102,1 |
| dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 429 420 | 102,5 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 24 949 | 102,1 |
| **shundan sigirlar** | **172 834** | **104,2** |
| shu jumladan: | | |

| | Bosh | O‘sish sur’ati % da |
|---|---|---|
| fermer xo‘jaliklari | 20 640 | 104,8 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 141 862 | 104,0 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 10 332 | 106,3 |
| **Qo‘y va echkilar** | **382 746** | **106,6** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 70 998 | 107,7 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 281 314 | 104,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 30 434 | 122,6 |
| **Otlar** | **17 155** | **99,5** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 5 068 | 105,7 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 10 960 | 96,2 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 127 | 106,8 |
| **Parrandalar** | **4 524 753** | **107,9** |
| shu jumladan: | | |
| fermer xo‘jaliklari | 350 591 | 102,9 |
| dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 1 488 744 | 97,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2 685 418 | 115,2 |

2026-yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **9,0** % fermer xo‘jaliklari hissasiga, **86,0** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **5,0** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

Shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **11,9** % fermer xo‘jaliklariga, **82,1** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **6,0** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, qo‘y va echkilarning umumiy sonidan **18,5** % fermer xo‘jaliklariga, **73,5** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **8,0** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan **7,7** % fermer xo‘jaliklariga, **32,9** % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **59,4** % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

### 2026-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni, bosh

| | Yirik shoxli qoramollar | shundan, sigirlar | Qo‘y va echkilar | Parrandalar |
|---|---|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **499 242** | **172 834** | **382 746** | **4 524 753** |
| Guliston sh. | 18 072 | 7 847 | 12 600 | 922 040 |
| Shirin sh. | 4 501 | 1 662 | 4 111 | 14 765 |
| Yangiyer sh. | 6 246 | 1 266 | 7 940 | 121 870 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Oqoltin | 44 679 | 12 740 | 34 285 | 344 326 |
| Boyovut | 82 846 | 30 243 | 81 568 | 268 767 |
| Sayxunobod | 78 053 | 30 566 | 40 428 | 277 057 |
| Guliston | 55 880 | 16 985 | 28 588 | 218 152 |
| Sardoba | 43 899 | 13 240 | 39 483 | 677 049 |
| Mirzaobod | 55 158 | 17 687 | 43 893 | 946 537 |
| Sirdaryo | 59 033 | 20 631 | 32 769 | 463 830 |
| Xovos | 50 875 | 19 967 | 57 081 | 270 360 |

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
**kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi,** % da

| | 2025 yil | 2026 yil |
|---|---|---|
| **Sirdaryo viloyati** | **97,7** | **97,0** |
| Guliston sh | 94,2 | 98,4 |
| Shipin sh | 98,5 | 98,5 |
| Yangiyep sh | 97,8 | 98,5 |
| *tumanlar:* | | |
| Boyovut | 99,2 | 98,6 |
| Guliston | 99,3 | 98,6 |
| Mirzaobod | 93,7 | 90,8 |
| Oqoltin | 99,4 | 98,6 |
| Sardoba | 95,7 | 94,3 |
| Sayxunobod | 98,9 | 98,6 |
| Sirdaryo | 96,8 | 96,5 |
| Xovos | 99,1 | 98,7 |

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi **97,0** % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – **97,7** %) tashkil qildi.

## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.